



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil,
Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

PARKENT TUMANI IQTISODIYOTIGA UMUMIY GEOGRAFIK TAVSIF

Yo'ldosheva Xumora Ergash qizi

magistrant

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

e-mail: yoldoshevaxumora@gmail.com

Annotatsiya: Har birimiz uchun muqaddas hisoblanuvchi tug'ilib o'sgan go'sha, unib o'sib kamol topgan joyimiz bu o'zimizning qishlog'imiz, tumanimiz hisoblanadi. Har bir inson o'zini yashab turagan hududini geografik jihatdan har tomonlama bilishi shart hisoblanadi. Ayniqsa, ilk qadamlarimizni bosgan tuproqlarimiz, o'zimizni hayot kechirishimiz uchun foydalaniladigan barcha sohalari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz kerak. Shularni barchasini hisobga olib qalbimda vatanparvarlik hissi jo'sh urgan holda Parkent tumanini kompleks o'rganishga qaror qildim.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad Parkent tumanining iqtisodiy jihatdan o'rganish, ishlab chiqarish kuchlari, iqtisodiyotidagi asosiy yetakchi tarmoqlari, zavod va fabrikalari, turizm tarmoqlarini o'rganish.

Kalit so'zlar: iqtisodiy geografik o'rin, iqtisodiy omil, tabiiy omil, eksport, dehqonchilik, turizm, ekoturizm, rekreatsiya.

GENERAL GEOGRAPHICAL DESCRIPTION OF THE ECONOMY OF PARKENT DISTRICT.

Yuldasheva Khumora

Annotation: The place where we were born and grew up, which is sacred to each of us, is our village, our district. Everyone must know the geographical area in which they live. In particular, we need to be aware of the soils we have taken our first steps in, all the areas they use to sustain themselves. With all this in mind, with a sense of patriotism in my heart, I decided to make a comprehensive study of Parkent district.

The main purpose of this study is to study the economic situation in Parkent district, its productive forces, the main sectors of the economy, factories and plants, tourism.

Keywords: Economic geographical location, economic factor, natural factor, export, agriculture, tourism, ecotourism, recreation.

O'zining go'zal va takrorlanmas tabiati, mo'tadil iqlimi, shirindan shakar mevalari bilan mashxur bo'lgan Parkent tumani va uning atrofidagi hududlar qadimgi aholi manzilgohlaridan biri bo'lgan. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda, bu yerlarda ilk inson paleolit davrida paydo bo'lgan. Zarkent, Nomdanak

qishloqlarida birinchi doimiy turar joylar taxminan 2800- 3000 yillar ilgari paydo bo'lganligi haqida tarixiy manbalarda yozib qoldirilgan.


Geografik o'rniga ko'ra , Parkent tumani Toshkent shahridan 48 km sharqda, O'rta Tyanshan Chotqol tog' tizmalarining g'arbiy etaklarida joylashgan. Tuman shimol, sharq va janub tomonlarda Bo'stonliq-Ohangaron, g'arbda esa yuqori Chirchiq va qisman janubiy - g'arbiy tomonda Quyi Chirchiq tumanlari bilan chegaradosh. Bu maskanning tog'lar bilan o'ralganligi uning tabiatiga alohida joziba beradi. Yer sathi g'arbdan sharqqa tomon dengiz sathiga nisbatan 506 metrdan (Qoraqalpoq q.) 3267, metrgacha (Qizilnura ch.) o'zgaradi.

Relyefi: tog'oldi tekisliklar, adirlar va tog' hududlaridan tashkil topganligi sababli , tuman iqlimi ham vertikal mintaqalarga bo'linib, xilma-xil hudusiyatlari bilan ajralib turadi. Tekisliklarda tipik bo'z tuproqlar, adirlarda to'q bo'z tuproqlar, tog' zonasida esa jigar rang tog'-o'rmon tuproqlari tarqalgan.

Tabiiy joylashishiga ko'ra Parkent tumani hududi Toshkent- Mirzacho'l keskin kontinental (quruq) iqlim zonasiga kiradi. Hududning tog'lar bilan o'ralganligi, uning bag'rida soylar va zilol buloqlar ko'pligi o'ziga hos mo'tadil mikroiklimiy sharoitni vujudga keltiradi. Havonining yillik o'rtacha harorati 12,8 C , yillik yog'in miqdori esa 536 mm ni tashkil etadi. Quyoshli o'lkamizda bo'lgani singari , quyosh yil davomida 3000 soatdan ko'p vaqt tuman hududiga o'zini zarrin nurlarini sochib turadi. Tumanning tabiiy suv manbalariga o'nlab soylar va 500 dan ortiq buloqlar kiradi. Chirchiq daryosining chap irmoqlari bo'lmish Parkentsoy, Boshqizilsoy va Oqsoqotasoy Parkentning asosiy suv manbalari hisoblanadi.

Hududning iqlimi va tubroqlariga monand, o'simlik va hayvonot olqmida ham mintaqaviylik mavjud. Bu yerlarda 70 oilaga mansub, 1000 dan ortiq o'simlik turlari qayd etilgan. Ulardan 200 turga yaqini dorivor o'simliklar hisoblanadi.

Parkent shahri tumanning ma'muriy markazi hisoblanadi. Shahar aholisi soni (01.01.2021 holatiga ko'ra) 75.3 ming kishi 48.6% ni , qishloq aholisi esa 79.5 ming kishi 51.4% ni tashkil etmoqda. Aholi zichligi 1 kv.km ga -136 kishi to'g'ri keladi. Tumanga bo'ysinuvchi shaharlar soni 1 ta , shaharchalar (shahar tipidagi pasyolkalar) -3 ta, aholi punktlari -22 tani, mahalla fuqorolar yig'inlari -58 tani tashkil etadi.



1-rasm. Parkent tumani xaritasi

Parkent tumani agrar hududlar qatoriga kirishi sababli qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning tayanch tarmog'i hisoblanadi. Hududning ishlab chiqarishining salmoqli qismi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazish va qayta ishlash bilan bog'liq. Tumanda qishloq xo'jaligi faoliyatiga aloqasi bo'lmagan oila yo'q mubolag'a bo'lmaydi. Bu soha bir tomondan, aholiga oziq-ovqat, sanoatga homashyo mahsulotlarini yetkazib bersa, boshqa tomondan , mehnat qilganlarni oqtisodiy ta'minlash va turmush tarzida farovon hayotni ham ta'minlaydi.

Toshkent shahri aholisi va mahsulotni qayta ishlash sanoat korxonalari tumanda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy, iste'molchisi hisoblanadi. Bundan tashqari meva sabzavot mahsulotlarini chet davlatlariga eksport qilishda ham yetakchilik qiladi. Shu bilan birga , ularning talabchan bozorlari mahsulot turlariga, sifatiga va umuman raqobatbardoshligiga qo'shimcha ma'ulyat yuklanadi.

Dehqonchilik va chorvachilik qishloq xo'jaligi sohasini tashkil etuvchi tarmoqlaridir. Ular o'z navbatida, bir qancha ixtisoslarga bo'linadi. Tuman dehqonchiligi g'allachilik, uzumchilik, bog'dorchilik, polizchilik, kartoshka va hashaki ozuqa yetishtirishga ixtisoslashgan. Parkent shirin- shakar uzumi va mevalari qadimdan mashhur. Uzumchilik bilan bog'dorchilik tuman dehqonlarining

yetakchi tarmog'I hisoblanadi. Ayniqsa ,Parkent uzumlari ekologik tozaligi, yuqori shirasi va boshqa xususiyatlari bilan Ozbekistonda va boshqa davlatlarda ham mashhurdir. Tuman uzumzorlarida yuzdan ortiq uzum navlari yetishtiriladi. Masalan; Nimrang, Soyaki, Muskat, Charos, Vinni, Kaberne kabu vinobob uzumlar, Shivilg'oni, Kishmish, Rizamat, Katta qo'rg'on, Toyifi, Xusayni, Xasayni, va boshqa ko'pgina xo'raki navlari keng tarqalagan. Uzoq muddat saqlashga, harorat o'zgarishiga bardoshli bo'lgan Toyifi, Parkent, Kishmish kabi navlari, eksportbopligi tufayli hamisha bozori chaqqon. Parkent uzumlaridan bo'lgan mayizlariga ham talab tuqori darajada hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda Parkent tumanining Toshkent shahri yaqiniga qulay geografik joylashishi, rivojlangan qulay magistral yo'llari, Xushhavo iqlimi, toza ekologik sharoiti, yuqori sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari, malakali mutaxassislar zaxirasi, muhandislik inshootlari bilan yetarli darajada ta'minlanganligi bu yerda raqobatdosh, eksportbop mahsulotlar yetkazish korxonalarini va qo'shma korxonalar qurish, sayyohlik va dam olish maskanlarini rivojlantirish imkoniyatlarini tobora ortib borayotgani ham Parkent tumanining boshqa tumanlardan ajiratib turishiga asosiy omil bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov X. "Parkent tongi" 1982, 1-son, 4-bet.
2. Parkent tumanining 2021 pasporti.
3. Soliyev. A.S.,Tashtayeva.S.K. Egamberdiyeva M.M. "Shaxarlar geografisi". O'quv qo'llanma.-Toshkent «Barkamol fayz media», 2018 y
4. S. Xusomiddinov, M. Shermatov."Parkent tumani" "O'qituvchi" Toshkent- 2006, 5-9 bet.